



UDK:811.523

Abdulhamid ZAYRIYEV,
Andijon davlat chet tillar instituti
E-mail:abdulhamidzayriyev@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, PhD M.Baxtiyarov taqrizi asosida

THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF LEXICOGRAPHY AND ITS ROLE IN LINGUISTICS: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF DICTIONARY COMPILATION

Annotation

This article provides a comprehensive overview of the origin, historical development, scientific and practical directions of the science of lexicography, and its modern state. It also analyzes the interrelationships between the Arabic, Indian, Greek, and European schools of lexicography, the traditions of lexicography, and the methodological foundations of dictionary creation. Special attention is paid to the types of dictionaries, the criteria for their classification, scientific typology, and the social significance of lexicography. The article is enriched with examples, in particular, devoted to the history of lexicography in Arabic lexicography and their role in lexicography.

Key words: Lexicography, Lexicology, Mu'jam, Dictionary typology, Arabic lexicography, Sanskrit grammar, Principles of dictionary construction, Encyclopedic dictionary.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЛЕКСИКОГРАФИИ И ЕЁ РОЛЬ В ЯЗЫКОЗНАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОСТАВЛЕНИЯ СЛОВАРЕЙ

Аннотация

В статье представлен комплексный обзор возникновения, исторического развития, научных и практических направлений науки лексикографии и её современного состояния. Анализируются взаимосвязи арабской, индийской, греческой и европейской школ лексикографии, традиции лексикографии и методологические основы создания словарей. Особое внимание уделяется видам словарей, критериям их классификации, научной типологии и общественному значению лексикографии. Статья насыщена примерами, в частности, посвящёнными истории лексикографии в арабской лексикографии и её роли в лексикографии.

Ключевые слова: Лексикография, Лексикология, Муджам, Типология словаря, Арабская лексикография, Санскритская грамматика, Принципы построения словаря, Энциклопедический словарь.

LEKSIKOGRAFIYANING TARIXIY TARAQQIYOTI VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI ROLI: LUG'AT TUZISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada leksikografiya fanining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi, ilmiy va amaliy yo'nalishlari hamda uning zamonaviy holati atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, arab, hind, yunon va Yevropa leksikografiya maktablari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar, mu'jamchilik an'analari va lug'at tuzishning metodologik asoslari tahlil qilingan. Lug'atlar turlari, ularni tasniflash mezonlari, ilmiy tipologiya va leksikografiyaning ijtimoiy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Maqola, xususan, arab leksikografiyasidagi mu'jamlar tarixi va ularning lug'atchilikdagi roliga bag'ishlangan misollar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Leksikografiya, Lug'atshunoslik, Mu'jam, Lug'at tipologiyasi, Arab lug'atchiligi, Sanskrit grammatikasi, Lug'at tuzish prinsiplari, Ensiklopedik lug'at.

Kirish. Tilshunoslik ilmda lug'atshunoslik dunyo ilmlari ichida azal-azaldan eng qadimiy sohalaridan biri sanaladi. Uning shakllanish va taraqqiy etish jarayonida tilshunoslardan tashqari kishilik jamiyatining boshqa a'zolari ham faol ishtirok etgan. Jahon va o'zbek tilshunosligida bir, ikki va ko'p tilli lug'atlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish jarayoni tilshunoslikning turli aspektlarida tahlil qilingan.

Shu bilan birga ikki tilli lug'atlarning manbalari va hozirgi davrda amalga oshirilgan ilmiy-amaliy nashrlarining ahamiyati va mukammalligini aniqlash uchun ilmiy-qiyosiy tahlillar amalga oshirilishi talab etiladi. Ushbu o'rinda tarjima lug'atlar ustida olib borilgan bir qator olimlarning monografik tadqiqotlarini ham e'tirof etish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslar N.Rasulova, Sh.Fayzullayeva, Q.Muhiddinov, M.Ziyayevlar, X.Fattohov, T.Qodirov, E.Umarovlarning monografik ishlari qatorida B.Hasanovning "Navoiy asarlariga tuzilgan qo'lyozma lug'atlarning tuzilish printsiplari" nomli

dissertatsiyasi o'zining keng qamrovliligi, tahlillarining ishonchliligi bilan ajralib turadi va unda "Badoe' al-lug'at", "Abushqa", "Sangloh", "Lug'ati atroqiya" asarlari tahlil qilingan. Lug'atshunos olim S.Normamatovning "O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni" nomli doktorlik ishi alohida ta'kidlash lozim. Dissertatsiya mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, u ikki va ko'p tilli lug'atlar tadqiqiga bag'ishlangan.

Ikki tilli turkiy lug'atchilik tarixi XI asrdan Mahmud Qoshg'ariyning turkcha-arabcha "Devonu lug'otit turk" qiyosiy-tarixiy asarini tartib berganidan boshlanganligi barchaga ma'lum. Arabcha-turkcha lug'atlardan yana biri — Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning (1075–1144) "Muqaddimat ul-adab" asari hisoblanadi. Olim bu asarini 1137 yilda Xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga tuhfa sifatida uning nomiga bag'ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo'lingan bo'lib — otlar, fe'llar,

bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi.

Turkiy leksikografiyaning taraqqiyot jarayoni va tadriji haqida tilshunos olim A.Nurmonov quyidagicha fikr bildiradi:

“Devonu lug'otit turk” asari umumturkiy leksikografiyaning namunasi bo'lsa, XIII – XIV asrlardan boshlab o'zbek leksikografiyasi undan oziqlangan holda mustaqil rivojlana boshladi. Ayniqsa, turkiycha-forscha, turkiycha-arabcha tarjima lug'atlar tuzishga e'tibor kuchaydi. Bu esa, arab va Ajam mamlakatlarida turkiy tilga qiziqishning ortib borganligi natijasi. Ana shu natijada “Tarjimonu turkiy va ajamiy va mu'g'uliy va forsiy” (XIII–XIV asrlar), “Kitob at-tuhfatuz-zakiyati fil-lug'atit turkiya” (XIV asr), Abu Hayyoning “Kitob al-idrok lison al-atrok” (XIV asr), shuningdek, Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan ko'pgina lug'atlar va boshqalar yuzaga keldi. Insoniyatning madaniy, ma'naviy va ilmiy taraqqiyotida tilning, xususan, so'zning, beqiyos o'rni bor. Odamlar o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va bilim tarqatish maqsadida turli vositalardan foydalanganlar, shular ichida eng muhim va keng qamrovli vosita bu — til hisoblanadi. Ammo inson jamiyati tarixan turli millatlar, xalqlar va elatlarga bo'lingan holda shakllangani bois, har bir xalqning o'z tili, so'z boyligi, grammatik tizimi va ma'no hamda tushunchalar dunyosi yuzaga kelgan. Shuning uchun ham xalqlar, elatlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro muloqot, hamkorlik va anglashuv ehtiyoji tufayli lug'atlar — ya'ni bir tildagi so'zlarni boshqa tilga tarjima qiluvchi, yoki bir tilning so'z boyligini izohlab beruvchi leksik manbalar vujudga keldi. Ana shu ehtiyoj natijasida dunyoda leksikografiya, ya'ni lug'atchilik ilmi paydo bo'ldi. Leksikografiya — bu so'zlarni o'rganish, tartiblash, izohlash va ularni lug'at shaklida tizimlashtirish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasi bo'lib, uning ahamiyati nafaqat tilshunoslar, balki tarjimonlar, adabiyotshunoslar, tarixchilar, manbashunoslar va keng jamoatchilik uchun ham beqiyosdir. Zotan, til har bir xalqning milliy ongi, tarixiy xotirasi va madaniy merosining asosiy ko'zgusidir. Leksikografiya, ayniqsa, insoniyatning tarixiy taraqqiyotidagi ilk sivilizatsiyalarda — Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Yunon va arab-islom madaniyatida alohida ahamiyat kasb etgan. Masalan, millodan avvalgi 3–2 ming yillarda Shumer va Akkad (Aqqod) xalqlari mixxat yozuvlarida boshqa tillardagi so'zlarning ma'nolarini qayd etgan ilk leksik ro'yxatlar paydo bo'lgan. Bu ro'yxatlar nafaqat leksikografiyaning, balki umumiy tilshunoslik fanining ham boshlang'ich manbalari hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu nuqtai nazardan qaralsa, leksikografiya tilshunoslik fanining eng qadimiy va ilk shakllangan sohalardan biri bo'lib, u jahon tilshunosligining shakllanishida va fan sifatida yuzaga kelishida asosiy ilk qadamni tashkil qiladi. Qadimgi Hindiston olimlari — Panini, Yaska, Bhartrixari kabi allomalarning sanskrit tilini mantiq, morfologiya va semantika jihatidan tahlil qilishga qaratilgan ishlari, keyinchalik Yevropa va Islom olamida ham leksikografiyaning rivojiga yo'l ochgan. Shuningdek, Aristotel, Sossyur, Bopp, Blumfild, Xomskiy kabi G'arb olimlarining leksik tarkibni o'rganishdagi nazariy ishlari, arab tilshunosligidagi “Mu'jam” an'anasi va mukammal lug'atchilik tajribalari bu sohaning jahon miqyosida qay darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Zamonaviy tilshunoslikda esa leksikografiya faqatgina lug'at tuzish bilan cheklanib qolmay, balki uning nazariy asoslarini ishlab chiqish, lug'at turlarini klassifikatsiya qilish, foydalanuvchi ehtiyojini hisobga olgan holda lug'atlar tuzish, elektron va kompyuter leksikografiyasi yo'nalishlarida ham faol ravishda ish olib bormoqda. Shu bois, ushbu maqolada leksikografiyaning tarixi, nazariy asoslari, amaliy yo'nalishlari, uning fan sifatidagi shakllanish jarayoni hamda

arab, hind va yevropa leksikografiyasining o'zaro ta'siri hamda qiyosiy tahlillariga alohida e'tibor qaratamiz. Shuningdek, mu'jam tushunchasining yuzaga kelishi, arab leksikografiyasidagi mu'jamlar an'anasi, ularning tasniflari va arabcha lug'atchilikdagi metodologik yondashuvlar ham tahlil etiladi.

“Leksikografiya” atamasi grek tilidan olib kiritilgan bo'lib, “so'zlar haqida yozish” ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida bu atama «lug'at ilmi», «lug'atchilik» yoki «lug'atshunoslik» sifatida talqin qilinadi. U o'z mohiyatiga ko'ra, tilshunoslikning lug'atlar tuzish va ularni ilmiy jihatdan o'rganishga ixtisoslashgan sohasidir [1]. Leksikografiya ikki asosiy turga ajratiladi: Nazariy leksikografiya — lug'at tuzishning nazariy, metodologik va fanlararo masalalarini o'rganadi. Amaliy leksikografiya — lug'at tuzish jarayoni, so'z tanlash, maqolalarni shakllantirish, tartiblash va lug'atni tayyorlash bilan shug'ullanadi. Leksikografiyaning ijtimoiy vazifalari, Lug'at tuzish faqat tilshunoslik emas, balki ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi:

1. Ona tilning so'z boyligini saqlash, tavsiflash va normalashtirish;
2. Tillararo muloqotni ta'minlash (ikki yoki ko'p tilli lug'atlar orqali);
3. Leksik va frazeologik boylikni ilmiy asosda tadqiq etish.

Lug'atlarning mavjud turlari xilma-xildir. Bu xilma-xillik, birinchi navbatda, leksikografik tavsif ob'ektining, ya'ni tilning murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan izohlanadi. Qolaversa, jamiyatning tilga oid turli xil ma'lumotlarni olishga bo'lgan ko'p sonli ehtiyojlari ham lug'atlar repertuarini murakkablashtiradi va kengaytiradi. Bitta lug'atda til haqida butun jamiyatni, uning alohida qatlamlari va xususiyatlarini birdek qanoatlantiradigan, u yoki bu darajada to'liq ma'lumot berishning deyarli imkoniyati yo'q. Shuning uchun ham har qanday milliy leksikografiyada har xil turdagi o'nlab, hatto yuzlab lug'atlarni uchratamiz. Shuningdek, umuman olganda mazmuni va maqsadiga ko'ra lug'atlar ikki asosiy guruhga bo'linadi: ensiklopedik va lingvistik yoki filologik. Ensiklopediyalar va ensiklopedik lug'atlar so'zlarni emas, balki ular bilan ifodalangan voqelikni (ob'ektlar, shaxslar, hodisalar va tushunchalar) tushuntiradi. “Ensiklopediya” so'zi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, “bilim doirasi” ma'nosini anglatadi. Ensiklopediyalar har qanday darajadagi o'quvchiga qiziqqan mavzu bo'yicha ma'lumot beradi va o'z-o'zini tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Umumiy ensiklopediyalardan tashqari, falsafa, tarix, texnologiya, matematika, fizika, tibbiyot va boshqa sohalar bo'yicha maxsus ensiklopediyalar mavjud. Ular muayyan sohadagi tushunchalarni alifbo tartibida tushuntiradi. Lug'at tuzishning asosiy tamoyillaridan biri — lug'atga olinayotgan so'zlikning hajmini aniqlashdir. Odatda lug'atning hajmi uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, u haqidagi ma'lumot lug'atning sarlavha sahifasida yoki izohida beriladi. Lug'atning so'zligi lug'at turiga qarab belgilanadi. Misol uchun, so'zlikning eng to'liq to'plami izohli lug'atlarida, eng kami — imlo va shunga o'xshash bir tomonlama lug'atlarda keltirilgan. Ba'zi izohli yoki o'quv lug'atlari shunchalik ko'p tavsif parametrlarini qamrab oladiki, ularning har biri maxsus zonada (vizual, grafik jihatdan) ajralib turadi: grammatika zonasi, moslik zonasi, ma'no zonasi, rasmlar zonasi va boshqalar.

Lug'atlarning turlarga bo'linishi, tasniflovchilar ta'kidlaganidek, turli sabablarga ko'ra sodir bo'ladi: lug'atning maqsadi, hajmi, undagi so'zlarning joylashish tartibi, tavsif ob'ektiga va hokazolarga ko'ra bir xil turdagi lug'atda birlashsa, boshqalari bir-biridan ajralib turadi va butunlay boshqa turdagi lug'atlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tarjima, izohli, dialekt va mintaqaviy lug'atlar, jargon, tarixiy, neologizmlar, etimologik, mashhur iboralar va boshqa

ko'plab lug'atlar mavjud[2]. Shuni ta'kidlash kerakki, garchi lug'atlar tipologiyasini yaratishga ko'plab tilshunoslar, xususan, L.V.Shcherba, P.N.Denisov, B.Kemada, Ya.Malkil, L.Zgusta va boshqalar uringan bo'lsalar-da tilshunoslikda lug'atlarning umume'tirof etilgan tipologiyasi haligacha mavjud emas.

Lug'atlar tipologiyasi, ya'ni ularni turlarga ajratish — bu lug'atlarning turli xususiyatlari asosida ilmiy tasniflash. Lekin, odatda, bu tipologiya mavjud lug'atlar asosida amaliy jihatdan tuziladi. Shuning uchun bu yerda ilmiy lug'atlar tipologiyasidan ko'ra, uni tuzish tamoyillari haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda lug'atlarni tasniflashda lingvistik, semiotik, formal va ijtimoiy-pragmatik parametrlar yoki bir nechta yo'nalishlari shakllangan va ular asos sifatida olinishi mumkin. Bu parametrlarni ishlab chiqishga L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, S.I.Ojegov, V.G.Gak, A.M.Sivin, L.P.Stupin, L.A.Novikov, V.A.Kozirev, P.N.Denisov, L.P.Krisin va boshqa ko'plab tilshunos olimlar katta hissa qo'shganlar. Ammo lug'atlarning ilmiy tipologiyasi asosini ilk bor akademik L.V.Shcherba o'zining “Опыт обшей теории лексикологии” (“Leksikografiyaning umumiy nazariyasi tajribasi”, 1940y.) maqolasida yoritgan. U lug'atlarni o'zaro qarama-qarshi qiyoslash orqali quyidagi olti juftga ajratadi:

1. akademik turdagi lug'at — ma'lumotnoma lug'ati;
2. ensiklopedik lug'at — umumiy lug'at;
3. tezaurus — oddiy (izohli yoki tarjima) lug'at;
4. oddiy lug'at — ideografik lug'at;
5. izohli lug'at — tarjima lug'ati;
6. tarixiy bo'lmagan lug'at — tarixiy lug'at.

Bir qator tilshunoslar L.V.Ilyerbaning tasniflarini to'ldirib, sharhlaganlar. Masalan, professor V.G.Gak, lug'atlarni quyidagi sakkizta differensial belgilarga ko'ra tasniflaydi: 1) mazmunga ko'ra; 2) leksikani tanlashga ko'ra; 3) tavsif usuliga ko'ra; 4) tavsif birligiga ko'ra; 5) materialning joylashuviga ko'ra; 6) so'zning davrdagi qo'llanilishiga ko'ra; 7) lug'atning maqsadiga ko'ra; 8) tillar soniga ko'ra.

Zamonaviy lug'atlarning xilma-xilligi ularning tasniflari uchun turli asoslarni yaratishga asos bo'lmoqda va bu borada turli ilmiy-amaliy parametrlarni io'dab chiqmoqdalar. Arab mu'jamlari ikki asosiy turga bo'linadi: Mu'jam ma'oni (tematik leksikon) — muayyan mavzular asosida tuziladi; Mu'jam al-faz (alfavit asosidagi lug'at) — so'zlar alifbo asosida joylashtiriladi va ma'nolari izohlanadi. Mu'jam va Qur'on leksikografiyasi Qur'oni Karimga oid leksikografik ishlar — “mu'jam al-maqaniz”, “al-feharis”, “al-masodar” singari terminlar asosida leksemalarning konteksti, ma'nolari va qo'llanilishi tahlil qilinadigan manbalardir[4]. Ular Qur'on tilshunosligi va tafsirshunoslik sohalarida muhim o'rin tutadi.

Arab tili idiomatik iboralariga boy til. Bu iboralarni semantik ekvivalentligini ta'minlashda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, arabcha «خَيْر مَطَر» (matar khair) iborasi «foydali yomg'ir» ma'nosini ifodalaydi, ammo uning tarjimai ko'pincha uning chuqur ma'nosini ifodalay olmaydi.

Bu iborani so'zma-so'z “foydali yomg'ir” deb tarjima qilish mumkin, lekin bu uning madaniy va emosional yukini to'liq aks ettirmaydi. Arab madaniyatida bu ibora yolg'iz ob-havo holatini emas, balki baraka, rizq, yaxshilik va Allohning rahmati kelishi bilan bog'liq ma'noda qo'llaniladi.

Arab jamiyatida, ayniqsa sahro va quruq hududlarda yomg'ir kam yog'adi. Shuning uchun yomg'ir — hayot va farovonlik timsoli. “Matar khair” deb aytish, Allohdan kelgan yomg'ir barakali bo'lishini ifoda etadi va shukrona va xush niyat bildirish formasi hisoblanadi.

To'g'ri semantik tarjima uchun yechim: So'zma-so'z emas, ma'noli tarjima qilish kerak:

“Barakali yomg'ir”

“Yomg'ir yaxshilik keltirsin”

“Allohdan kelgan yaxshilik”

“Fayzli yomg'ir”

Shu bilan birga, diniy va madaniy kontekstni tushunmagan o'quvchi yoki tinglovchi uchun izoh ham kerak bo'ladi.

Qisqa xulosa: “خَيْر مَطَر” iborasi oddiy tabiiy hodisani emas, balki madaniy qadriyatlar, diniy e'tiqod va ijtimoiy tasavvurlar bilan to'la. Shuning uchun uni tarjima qilganda, semantik ekvivalentlikni saqlash uchun so'zma-so'z emas, madaniy-ma'noli yondashuv talab etiladi.

خَفِيفَةٌ يَدَهُ (yaduhu khafifa) — “Uning qo'li engil”. Bu ibora ikki xil ma'noda ishlatiladi:

Agar usta haqida bo'lsa — ishni chiroyli, tez va oson qilib bajaradi.

Agar mehmon haqida bo'lsa — mehmon oz yeb-ichadi, xo'jayiga yuk bo'lmaydi.

So'zma-so'z “His hand is light” deb tarjima qilish mumkin, ammo bunday tarjima anglashilmasligi mumkin. Kontekstga qarab:

“He works with a light touch”

“He is an easy guest”

kabi variantlar talab etiladi.

4. Stilistik elementlar. Arab adabiyotida ko'pincha metafora va alegoriyadan keng foydalaniladi. Semantik ekvivalentlikka erishish uchun tarjimonlar nafaqat literal ma'noni, balki manba matnining stilistik xususiyatlarini ham e'tiborga olishlari zarur.

5. Konnotatsiya va denotatsiya. Arab tilidagi so'zlar ko'pincha denotativ (literal) va konnotativ (implisit) ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Tarjimonlar ushbu ma'nolarni kuzatishlari va semantik ekvivalentlikni ta'minlashlari uchun doimo ma'noni to'g'ri tushunishlari kerak.

Masalan, «سَعِيد» (sa'id) so'zi “hamd” ma'nosini anglatadi, lekin uning kontekstiga ko'ra ko'pincha farqlanishi mumkin (masalan: xursand, qoniqish).

1. Denotativ ma'nosi (lug'aviy): «Sa'id» so'zining lug'aviy ma'nosi — «xursand», «baxtli». Bu so'z sa'ada (سَعَادَة) — “saodat, baxt” so'zidan kelib chiqqan.

2. Konnotativ (implisit) ma'nolari: Kontekstga qarab, «سَعِيد» so'zining ma'nolari kengayib, quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, leksikografiya — bu faqat so'zlar jamlanmasi emas, balki har bir xalqning dunyoqarashi, madaniy ongi, tarixiy tafakkuri va tilining teran ifodasidir. Til insoniyat sivilizatsiyasining asosiy belgisi sifatida shakllangani kabi, lug'atlar ham madaniyat, ilm va fan taraqqiyotida muhim ko'prik vazifasini bajarib kelmoqda. Leksikografiya fan sifatida uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o'tgan. Uning ilk namunasi Sharq sivilizatsiyasi — Shumer, Akkad, Hind va Xitoyda paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Aristotel, Panini, Yaska, Xalil ibn Ahmad, Firo'zobodiy, Jo'rij Bush, Sossyur, Blumfeld, Xomskiy kabi mutafakkirlar bu sohaning nazariy asoslarini boyitdilar. Ayniqsa, arab-islom leksikografiyasida mu'jamlar an'anasi juda yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu an'ana keyinchalik Yevropada ham o'z ta'sirini ko'rsatgani ta'rifga loyiq. Maqola davomida leksikografiyaning faqatgina lug'at tuzishdan iborat emasligi, balki uning nazariy-metodologik, tarixiy va amaliy jihatlarini mavjud ekanligi ko'rsatildi. Zamonaviy leksikografiyada esa kompyuter texnologiyalari, korpus lingvistikasi, ongli lug'atlar tuzish, foydalanuvchiga yo'naltirilgan yondashuv, multimodal lug'atlar, elektron formatlar kabi yangi yo'nalishlar vujudga kelmoqda. Bu esa leksikografiyaning dinamik, tizimli va taraqqiyotga ochiq fan ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии // Известия Академии наук СССР, Отделение литературы и языка. - 1940. - № 3. - С. 89-117.
2. Ahmad Mukhtar Umar, Sina'atu al Mu'jam al Hadis, (Kairo: 'A>lamu al Kutub, 2009), p. 19-20
3. Hilmy Khalil, al Dirasat fil Lughah wa al Mu'jam, 1st ed., (Beirut: Dar al Nahdhoh, 1998), p. 470
4. Adnan Quthaib, al Mu'jam al 'Arabiy baina al Madhy wa al Hadir..., p. 32-33